

ILK KONSTITUTSIYA VA UNING TARIXIY RIVOJLANISHI

Alijonov Jahongir Mullojon o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651988>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada konstitutsiya tushunchasining paydo bo'lishi, uning tarixiy ildizlari hamda ilk konstitutsiyaviy hujjatlarning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi.

Qadimgi davrdagi huquqiy manbalar, o'rta asrlar va yangi davr konstitutsiyaviy islohotlari asosida zamonaviy konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquqiy davlat, Xammurappi qonunlari, inson huquqlari, qadimgi qonunlar, Magna Carta, demokratik boshqaruv, davlat hokimiyati, AQSH Konstitutsiyasi, Fransiya inqilobi.

Аннотация. В данной научной статье анализируются возникновение понятия конституции, его исторические корни, а также процесс формирования первых конституционных документов. На основе правовых источников древности, а также конституционных реформ Средневековья и Нового времени освещаются этапы развития современных конституций.

Annotation. This scientific article analyzes the emergence of the concept of the constitution, its historical roots, and the process of formation of the first constitutional documents.

Based on legal sources from ancient times, as well as constitutional reforms of the Middle Ages and the modern era, the stages of development of modern constitutions are highlighted.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, u davlat tuzilishi, boshqaruv shakli va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklarini belgilaydi. Konstitutsiyaviy g'oyalar qadimgi davrlardan boshlab shakllanib kelgan va bugungi zamonaviy huquqiy tizimlarning asosini tashkil etadi.

Qadimgi dunyoda konstitutsiyaviy xarakterga ega bo'lgan dastlabki huquqiy manbalardan biri sifatida **Hammurapi qonunlari** alohida o'rin tutadi. Hammurapi qonunlari, taxminan **282 moddadan** iborat bo'lgan.

Ushbu qonunlar miloddan avvalgi **XVIII** asrda yaratilgan bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solgan. Unda jinoyat va jazo tizimi, mulkiy munosabatlar hamda ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi huquqiy farqlar aniq belgilangan.

O'rta asrlarda konstitutsiyaviy rivojlanishning muhim bosqichi sifatida **1215-yilda** qabul qilingan **Magna Carta** e'tirof etiladi. Magna Carta **63 moddadan** iborat. Ushbu hujjat qirol hokimiyatini cheklab, fuqarolarning ayrim huquqlarini himoya qilishga xizmat qilgan.

U konstitutsiyaviy boshqaruvning shakllanishiga asos bo'lib, keyinchalik parlament tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

XVIII asrga kelib konstitutsiya tushunchasi zamonaviy mazmun kasb eta boshladi.

Ayniqsa, **1787-yilda** qabul qilingan **AQSH Konstitutsiyasi** dunyodagi birinchi yozma konstitutsiya sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. AQSH Konstitutsiyasi eng qisqa Konstitutsiya bo'lib, **7 moddadan** tarkib topgan.

Unda hokimiyatlar bo'linishi, xalq suvereniteti va qonun ustuvorligi prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan.

Zamonaviy Konstitutsiya turlarga ham bo'linadi:

1. **Shakliga ko'ra:** a) yozma (AQSH, O'zbekiston); b) yozilmagan (Buyuk Britaniya).

2. **Tuzilishiga ko`ra:** a) qattiq (o`zgartirish qiyin); b) yumshoq (o`zgartirish oson).

3. **Boshqaruv shakliga ko`ra:** a) respublika; b) monarxiya.

Shuningdek, **1789-yilda** yuz bergan **Fransuz inqilobi** konstitutsiyaviy rivojlanishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda **inson huquqlari va erkinliklari** davlat siyosatining markaziy masalasiga aylandi. Natijada konstitutsiyalarda inson huquqlarini himoya qilish ustuvor vazifaga aylandi.

Ilk konstitutsiyaviy hujjatlar davlat hokimiyatini cheklash, fuqarolar huquqlarini belgilash va qonun ustuvorligini ta`minlashda muhim rol o`ynadi. Ular bugungi demokratik davlatlarning huquqiy poydevorini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dicey, A. V. (1959). *Introduction to the Study of the Law of the Constitution*. London: Macmillan.
2. Carpenter, D. (2015). *Magna Carta*. London: Penguin Books.
3. Doyle, W. (2002). *The Oxford History of the French Revolution*. Oxford: Oxford University Press.
4. Madison, J., Hamilton, A., & Jay, J. (2003). *The Federalist Papers*. New York: Signet Classics.
5. Howard, A. E. D. (1991). *Constitutional World*. New York: Oxford University Press.
6. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Toshkent: O`zbekiston nashriyoti.
7. Odilqoriyev, X. T. (2020). *Konstitutsiyaviy huquq*. Toshkent: TDYU nashriyoti.